PEDAGOGIK TADQIQOTLAR JURNALI
ISSN: 3060-4923 Impact Factor –7,212

MUHAMMAD YUSUF IJODINING BOLALAR TAFAKKURIGA TA'SIRI

Fayziyeva Shamsiya Bekmirzo qizi
Samarqand davlat pedagogika instituti 1-kurs magistranti
Tel.: +998947655995
E-mail:fayziyevashamsiya2003@gmail
Doi: https://doi.org/10.5281/zenodo.20545378

Annotatsiya: Ushbu maqolada xalqimiz sevgan shoir Muhammad Yusuf ijodining bolalar tafakkuriga ta'siri shoirning ba'zi bir she'rlarini keltirish orqali tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Vatan, tarbiya, tafakkur, xalqona, ravon, she'riyat, estetik did, obraz, badiiy tafakkur, ezgulik, ijod, she'riy matn, dunyoqarash.

Annotation: This article analyzes the influence of the works of the beloved national poet, Muhammad Yusuf on children's thinking by examining some of his poems.

Keywords: Homeland, upbringing, thinking, folk-style, fluent, poetry, aesthetic taste, imagery, artistic thinking, goodness, creativity, poetic text, worldview.

Muhammad Yusuf o'zining chuqur ma'noli, xalqona va ravon she'riyati bilan kattalar qalbida chuqur iz qoldirgani kabi, bolalar adabiyotiga xos soddalik, hayotiylik va yuksak tarbiyaviy g'oyalarni ham o'z she'rlarida mujassam etgan. Ayniqsa, uning bolalarga mo'ljallangan asarlari o'quvchilarning fikrlash doirasini kengaytirishga, hayotiy hodisalarni baholashga, badiiy-estetik didini rivojlantirishga xizmat qiladi. Muhammad Yusuf she'riyatining mazmunida tabiat go'zalliklari, ota-onaga mehr-muhabbati, Vatanga sadoqat, axloqiy qadriyatlar, ezgulik va go'zallik kabi tushunchalar bolalarning psixologik dunyosi, estetik qarashlari bilan uyg'unlashgan tarzda beriladi. Aynan shu jihatlar uning asarlarini boshlang'ich sinf o'quvchilari ongini shakllantirishda samarali vosita sifatida ishlatish imkonini yaratadi. Muhammad Yusuf she'riyatidagi obrazlar – ona, bolalik, tabiat, oddiy odamlar hayoti – bola tasavvuriga yaqin, jonli va tabiiy. Bu obrazlar o'quvchining shaxsiy tajribasi bilan bog'lanib, ularning xayol dunyosini, tushunchalarini, axloqiy pozitsiyasini rivojlantiradi. "Onamdan qolgan duolar" she'ridagi ona siymosi – mehr, sabr, ezgulik timsoli sifatida namoyon bo'lib, bolada ona mehriga bo'lgan minnatdorchilik hissi va samimiylikni kuchaytiradi. Bu esa bolaning hissiy-intellektual dunyosini rivojlantiradi. Muhammad Yusufning "Vatan", "O'zbekiston", "Vatan yagonasan", "Yurt o'g'lonlari" kabi she'rlari orqali o'quvchilarda Vatanga muhabbat, yurtga sadoqat kabi tushunchalar shakllanadi. Masalan, Vatan yagonasan she'riga bir e'tibor beraylik:

Bobolar kalomi dilimda doim,

Sen uchun yuragim qo'limda doim.

Sog'inaman yurgan yo'limda doim,

Vatan yagonasan dilimda doim.

Bolalar she'rni o'qir ekan, birinchi misralarining o'ziyoq ular qalbining tublarigacha kirib boradi. Demak vatan uchun hattoki yuragimizni fido qilishimiz kerak ekan degan tushuncha paydo

bo‘ladi.Bu esa ularda tanqidiy va maqsadli fikrlashga yo‘l ochadi, chunki bola o‘zini atrofdagi voqealarning faol ishtirokchisi sifatida tasavvur qila boshlaydi. O‘quvchilar vatan faqat tilimizda, balandparvoz gaplarimizda emas, balki har birimizning dilimizda bo‘lishi kerakligini anglaydi.

Bahorlar o‘tadi, yozlar o‘tadi,
Osmonni to‘ldirib, g‘ozlar o‘tadi.
O‘zingdan o‘zga so‘z-sozlar o‘tadi,
Vatan yagonasan dilimda doim.

Bahor, yoz fasllar almashib borar ekan, qushlar ham issiq o‘lkalarga uchib ketadi va qaytadi. Shu bilan yillar ham o‘tib boradi.Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari buni yaxshi bilishadi. “O‘zingdan o‘zga so‘z-sozlar o‘tadi” jumlasi esa barcha narsalar vaqtincha, faqat vatangina abadiy ekanligini, faqat ugina yodimizdan hech qachon chiqmasligi, yuragimizda har doim jaranglab turishini esa biroz tushuntirishga to‘g‘ri keladi.

Dunyolar ichida o‘zing bir dunyo,
Qo‘yningda yursam ham goho sir — dunyo.
Onam deymi seni, singlim deymi yo,
Vatan yagonasan dilimda doim.

Endi shoir o‘z vatanini dunyolarga tenglaydi. Dunyo, bu olam qanchalar katta bo‘lsa, uning ichida vatan ham bir dunyo deydi. Barcha narsalar, ko‘z oldimda namoyon esa-da, ba’zida ular sirga o‘xshaydi. Keying misrada vatan ona va singilga o‘xshatiladi, nima uchun? Chunki vatan ham xuddi ulardek mehribon bo‘ladi-da. Bu she’r orqali vatanning qaynoq mehri bolalar qalbi va ongiga daryo singari quyilib boradi. Muhammad Yusufning she’riy matnlari orqali o‘quvchilar quyidagi tafakkur turlarini egallaydi: Tanqidiy tafakkur – she’r mazmunini tahlil qilish, voqealar mohiyatini tushunish orqali. Ijodiy tafakkur – yangi obrazlar, o‘xshatishlar, misralar yaratish orqali. Assotsiativ tafakkur – she’rdagi obrazlarni o‘z hayoti bilan bog‘lash orqali. Analitik tafakkur – badiiy vositalarni ajratib ko‘rsatish, ularning mazmuniga baho berish orqali. Keling Oddiy muallim she’rini olaylik:

Qadri bilinadi, menga endi goh,

Olis maktabimning o‘sha behasham,

Navoiy-ku, bizga ustozdir, biroq,

Kimdir o‘qitganku Navoiyni ham!

Shunday buyuk zotga harf o‘rgatgan kim?

Oddiy muallim-da, oddiy muallim!

Shoirning o‘ziga xos izhori – bu satrda u vaqt o‘tishi bilan ba’zi qadriyatlar, xususan, muallim qadri anglanishini aytadi. "Goh" so‘zi esa bu tushuncha har doim emas, balki ba'zida, ba'zi paytlarda yaqqol sezilishini bildiradi. “Olis maktabim” iborasi bilan shoir maktab yillarini orziqib eslaydi. “Behasham” — ya’ni dabdabali emas, oddiy, lekin ma’naviy boy maktab. Bu satrda shoir uchun maktab oddiy ko‘rinsa-da, ichki jozibasi borligini ta’kidlaydi. Shoir Alisher Navoiydek ulug‘ shoirni ustoz sifatida tan oladi. Bu satrda shoir tarixiy ustozlarni yodga oladi, ammo bu orqali chuqurroq fikrga zamin hozirlaydi: “Navoiy ham kimdandir saboq olgan”. Bu zot esa oddiy muallimdir. Savol

orqali o‘quvchida hayrat uyg‘otadi: buyuklar ham kimdandir tarbiya olgan. Shoirning asosiy e’tirofi — ustozning muqaddasligiga urg‘u beradi.

Tuproqdek xokisor bezovta jonlar,

Ammo qanoatda tog‘dek ulug‘vor.

Hatto Temurdayin Sohibqironlar,

Pirim deb etagin o‘pgan zotlar bor.

Qaysar Jahongirga yo‘l ko‘rsatgan kim?

Oddiy muallim-da, oddiy muallim!

Oddiy muallim — tuproq kabi kamtar va betakalluf. Ammo ichidagi qanoat va kamtarligi uni tog‘dek ulug’vor qiladi. Tarixiy shaxslarning ulug’ligini oddiy muallimga bog’laydi. Hatto Sohibqirondek eng buyuk shohlarga ham yo’l ko’rsatadigan shaxs bu- oddiy muallimdir. She’rda keltirilgan tarixiy-hayotiy obrazlar bolada bog‘lanishlar hosil qiladi: oddiy muallim — buyuk insonlar tarbiyachisi ekanini anglash orqali fikrlash qirralari kengayadi. “Qanoatda tog‘dek ulug‘vor” frazasi bilan bolalarda sabr, qanoat tushunchalari abstrakt tarzda tushuntiriladi. Tarixiy shaxslar bilan oddiy muallimni solishtirish, o‘quvchida o‘qituvchining naqadar muhimligini tan olish hissini shakllantiradi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsam, Muhammad Yusuf she’rlari qaysi mavzuda bo‘lmasin har doim o‘quvchilarni o‘ziga jalb qila oladi va bevosita tafakkurini rivojlantirishga, dunyoqarashini kengaytirishga xizmat qiladi, ularni she’riyat ummonida suzishga o‘rgatadi, qalblaridan xiralikni quvib chiqarib, musaffo tuyg‘ularni joylaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Muhammad Yusuf. Saylanma. Toshkent: ”Sharq” nashriyoti, 2019.
2. Q.Husanboyeva, M.Hazratqulov, Sh.Jamoliddinova. Boshlang‘ich sinflarda adabiyot o‘qitish metodikasi. Toshkent: “Innovatsiya–Ziyo”, 2020.
3. Muhammad Yusuf. Xalq bo‘l elim. Toshkent. “O‘zbekiston”, 2005.
4. B. Jo‘rayev. Muhammad Yusuf she’riyati poetikasi. – “Til va adabiyot ta’limi” ilmiy jurnali, №2, 2017.
5. N.A. Jo‘rayev, G. Jo‘rayeva. Adabiy o‘qish darslarida tanqidiy fikrlashni shakllantirish. — Toshkent: Ilm Ziyo, 2020.